

# O'ZARO HAMKORLIK ALOQALARI BO'YICHA

SHARTNOMA № 38/23

Toshkent shahri

"04" 02 2023 y.

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 3-sonli BMSM direktori  
A.U. Khusbekov bir tomondan (keyingi o'rinlarda 1-tomon deb yuritiladi) va 2-tomondan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nomidan rektor Sh.M. Toxtasimov (keyingi o'rinlarda 2-tomon deb yuritiladi) o'z huquq va vakolatlari doirasida o'zaro hamkorlik bo'yicha birgalikdagi hamda muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida kelishib oldilar va ushbu Shartnomani quyidagilar bo'yicha tuzdilar:

## 1. Hamkorlik maqsadi:

1.1 O'zaro hamkorlik to'g'risidagi ushbu Shartnomaning maqsadi qo'shma ijodiy va madaniy tadbirlarni o'tkazishdan iborat.

1.2 Hamkorlik, tenglik va o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi.

## 2. Tomonlarning hamkorlik yo'nalishlari va shakllari:

2.1 O'qituvchilarning tajriba almashish va kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun qo'shma mahorat darslarini tashkil etish va o'tkazish;

2.2 Chirchiq sh 3-son BMSM o'qituvchilariga o'quvchilarni turli tanlovlarga tayyorlashda uslubiy yordam ko'rsatish;

2.3 Chirchiq sh 3-son BMSM O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talabalarining pedagogik amaliyotini o'tkazilishini ta'minlash;

2.4 Chirchiq sh 3-son BMSM O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining yetakchi professor-o'qituvchilarning mahorat darslarini, taniqli san'at va ta'lim arboblari, O'zbekiston mahoratli raqqosalari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish va o'tkazish;

2.5 O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bitiruvchi yosh mutaxassislariga 3-son BMSMda ishlashi uchun tavsiya berish.

2.6 Hamkorlikdagi faoliyatni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borish.

2.7 Xoreografiya sohasidagi kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganib borish sohaviy ehtiyojlarni aniqlash va kelgusi rejalarni muhokama qilish hamda mavjud ehtiyojlarni bosqichma-bosqich qondirib borish choralarini ko'rish.

## 3. Tomonlarning o'zaro ta'siri:

3.1. Ushbu Shartnoma doirasida tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-600-sonli farmoniga, san'at va madaniyat sohasida tenglik va ochiqlik tamoyillariga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

3.2. Tomonlar vakolatli vakillari orqali ushbu Shartnoma bandlarini bajarish bo'yicha hamda yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqish va qo'shma tadbirlarni o'tkazish yuzasidan o'zaro muloqot qiladilar.

3.3. Ushbu Shartnomaning imzolanishi:

Tomonlarga bir biriga nisbatan hech qanday moliyaviy va boshqa majburiyatlar yuklatilmaydi, faqat ushbu Shartnoma va tomonlarning yozma kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno:  
 Kasbiy va ho'jalik faoliyatini amalga oshirishda tomonlarning erkinligiga cheklovlar qo'yilmaydi:  
 Tomonlarning har-qanday faoliyat turlarini, jumladan, o'zaro hamkorlik doirasida tomonlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mustaqil ravishda bajarishiga cheklovlar qo'yilmaydi:  
 Tomonlarning boshqa hamkorlik va uyushmalarda ishtirok etishiga cheklovlar qo'yilmaydi:

#### 4.Yakuniy qoidalar:

- 4.1.Zarur hollarda, tomonlar ushbu shartnoma ko'zda tutilgan Tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning ayrim yo'nalishlarini amalga bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shma harakatlar rejalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.
- 4.2.Ushbu Shartnoma qoidalaridan kelib chiqadigan har qanday bildirishnomalar (xabarlar, ma'lumotlar va x.k) elektron pochta orqali yoki zarur hollarda, boshqa yo'l bilan (pochta, faks va boshqalar) har bir tomon tarafidan tayinlangan shaxslarga yuboriladi.
- 4.3.Tomonlar o'rtasidagi tortishuvlar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokaralar yoki maslahatlashuvlar orqali hal qilinadi. Ushbu Shartnoma bo'yicha harakatlarni amalga oshirish uchun tuzilgan shartnomalarni bajarish davomida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilish tartibi ko'rsatilgan shartnomalar (bitimlar) bilan belgilanadi.
- 4.4.Tomonlar iloji boricha samarali harakat qiladi va bir birining manfaatlarini hisobga olgan holda, ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan qoidalar va tadbirlarni amalga oshiradi.
- 4.5.Har bir tomon, boshqa tomon bilan kelishilgan holda, uchinchi tomonni ushbu Shartnoma qoidalarini bajarishga jalb qilishi mumkin.
- 4.6.Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va (yoki ) qo'shimchalar tomonlarning qarori bilan yozma ravishda kiritilishi mumkin va bu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 4.7.Ushbu Shartnoma manfaatdor tomonlar tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran 5 yil muddatga tuziladi. Agar ushbu Shartnoma, tomonlardan biri ushbu badda nazarda tutilgan muddatlar tugagunga qadar yoki tegishli yangilanish muddati tugashidan oldin uning bekor qilinganligini e'lon qilmasa, Shartnomaning amal qilish muddati avtomatik ravishda bir yilga uzaytiriladi.
- 4.8.O'zaro hamkorlik to'g'risidagi Shartnomaga o'zgartirishlar har qanday vaqtda tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan amalga oshirilishi mumkin.
- 4.9.Ushbu Shartnoma har bir tomon uchun bir nusxadan, 2 (ikki) nusxada o'zbek tilida tuzilgan.

#### 5.Tomonlarning imzo va rekvizitlari:

1-tomon	2-tomon
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 3-son Bolalar musiqis va san'at maktabi	O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi
Chirchiq shahar 1-kichik noxiya 81uy	Toshkent sh 100031 Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 103 uy
Telefon: +99870 714-17-97 +99891 475-11-66	Telefon: (99871) 215-55-94
Direktor:  A. Ulugbekov	Rektor:  Sh.M.Toxtasimov